

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

MAMAYUSUPOVA MUATTAR QOSIMJONOVNA

UMUMIY O'RTA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATI
SAMARADORLIGINI TA'MINLASH TEXNOLOGIYALARINI
AMALIYOTGA TATBIQ ETISH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH

13.00.07 - Ta'limda menejment

PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

Namangan – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Mamayusupova Muattar Qosimjonovna

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini
ta’minlash texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini
takomillashtirish..... 3

Мамаюсупова Муаттар Касимжоновна

Совершенствование механизмов внедрения в практику технологий
обеспечения эффективности деятельности организаций общего среднего
образования 25

Mamayusupova Muattar Qosimjonovna

Improving the mechanisms for implementing into practice the technologies for
ensuring the efficiency of general secondary education institutions 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 52

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

MAMAYUSUPOVA MUATTAR QOSIMJONOVNA

UMUMIY O'RTA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATI
SAMARADORLIGINI TA'MINLASH TEXNOLOGIYALARINI
AMALIYOTGA TATBIQ ETISH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH

13.00.07 - Ta'limda menejment

PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2025.1.PhD/Ped9724 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namdu.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turg'unov Sobitxon Toshpo'latovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yuldashev Maqsudjon Abdullayevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Temirov Nabijon Soliyevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi muassasa:

Andijon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya hamoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "17" oktyabr soat 14⁰⁰ daqi maglisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01, faks: (+99869) 228-85-02, ye-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2025 - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 4 » oktyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil « 4 » 10 daqi 1 - raqamli reyestr bayonnomasi).


T. Fayzullayev
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, s.f.d., professor
B.M. Abdurahmonov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kuzibi, p.f.d (PhD), dotsent
O.M. Asqarova
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, p.f.d (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv jarayonlari sharoitida yuzaga kelayotgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar ta'lim tizimiga yangicha konseptual yondashuvlarni va sifat ko'rsatkichlarini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Bu esa ta'limning ko'p qatlamli, o'zgaruvchan va murakkab strukturasi—ni ilmiy tahlil qilish, ta'lim sifatining innovatsion standartlarini ishlab chiqish hamda ta'lim muassasalari boshqaruvini ilg'or, ilmiy asoslangan boshqaruv texnologiyalari yordamida takomillashtirish va amaliyotga tizimli tatbiq etishni zaruratga aylantirmoqda. Shunday qilib, ta'lim tizimining samaradorligini ta'minlash uchun zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini mukammal o'rganish va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish jarayonlari muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda globallashuv jarayonlari va zamonaviy davrda yuzaga kelayotgan ijtimoiy, iqtisodiy hamda ekologik muammolarni samarali hal etishda rivojlangan mamlakatlar va xalqaro nufuzga ega tashkilotlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilga mo'ljallangan “Barqaror rivojlanish maqsadlari” dasturida ilgari surilgan “Sifatli ta'lim – barcha uchun va butun umr davomida ta'lim olish imkoniyati” tamoyilini faol qo'llab-quvvatlamoqda. Shu bilan birga, Inchxon Deklaratsiyasida ifodalangan “Ta'lim-2030: barcha uchun inklyuziv, adolatli va sifatli ta'limni ta'minlash”¹ konsepsiyasi asosida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yondashuvlarning tatbiqi orqali ta'lim sifatini oshirish, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining faoliyat samaradorligini ta'minlash hamda ularning boshqaruv tizimini zamonaviy me'yor va talablar doirasida rivojlantirish sohasida ilg'or amaliyotlar shakllanmoqda. Shu asosda olib borilayotgan ilmiy-pedagogik tadqiqotlar yanada chuqurlashib, ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etish hamda boshqaruvni nazariy va amaliy jihatdan uyg'unlashtirishga qaratilgan strategik va istiqbolli yo'nalishlar yuzaga kelmoqda.

Yurtimizda ta'lim sohasini tubdan isloh qilish hamda uni zamonaviy talab va ehtiyojlar asosida yangilash, modernizatsiya qilish jarayonlari davlat siyosatining ustuvor va strategik yo'nalishlaridan biri sifatida bosqichma-bosqich va tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek “Dunyoda isbot talab qilmaydigan bir haqiqat bor: har qanday mamlakat taraqqiyoti sog'lom va bilimli avlodga bog'liq”². “Yangi O'zbekiston” g'oyasi hamda Uchinchi Renessans tamoyillariga asoslangan taraqqiyot strategiyasi doirasida umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish muhim ustuvorliklardan biri sifatida e'tirof etilgan. Mavjud islohotlar doirasida ta'lim-tarbiya jarayonining sifat ko'rsatkichlarini oshirish, boshqaruv tizimini ilg'or xalqaro tajriba va standartlar asosida qayta ko'rib chiqish, shuningdek, pedagogik boshqaruvga innovatsion, kreativ va zamonaviy

¹ <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000245656>

² O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan 2025 yil 15-mayda 15-may videoselektor yig'ilishidagi nutqi.<https://www.president.uz/oz>

yondashuvlarni tizimli ravishda tatbiq etish ta'lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Tadqiqotning qonunchilik va me'yoriy-huquqiy asosi. 2020-yil 23-sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni № O'RQ-637, 2017-yil 7-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining № PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni, 2019-yil 29-apreldagi Prezident farmoni № PF-5712 «O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi Prezident farmoni № PF-60 «Yangi O'zbekistonni 2022–2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 11-maydagi Prezident farmoni № PF-134 «2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida», 2023-yil 26-maydagi Prezident farmoni № PF-79 «Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda unga bo'ysunuvchi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida», shuningdek, 2021-yil 25-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori № PQ-4963 «Xalq ta'limi sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash va uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022-yil 11-maydagi Prezident qarori № PQ-241 «Maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» ushbu tadqiqotning nazariy, ilmiy va metodologik asosini tashkil etadi. Mazkur dissertatsiya ishi yuqorida qayd etilgan normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni muayyan darajada amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari” ustivor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari boshqaruv faoliyati samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan tadqiqot ishlari mamlakatimiz pedagog olimlaridan, R.X.Djuraev, S.T.Turg'unov, R.Sh.Aholidinov, N.Q.Axmedova, U.I.Inoyatov, L.V.Pergudov, M.Sharifxo'jaev, A.E.Kenjaboev, V.Kattakishiev, N.Rahmatullaeva, Q.N.O'ralov, N.S.Mamadov, R.U.Asatov, N.M.Ziyavitdinova, N.Q.Yo'ldoshev, N.S.Mamadov, R.Sh.Aholidinov, L.A.Maqsudova, Sh.B.Xolmuratov, Q.O.Shodmonov, Sh.Po'latov, D.T.Akmalova, G.Yu.Xo'djamuratova, X.Alimov, O.M.Pardayev tomonidan o'rganilgan.

MDH olimlaridan N.V.Nemova, H.N.Hesenov, T.I.Shamova, A.I.Baranovskiy, T.M.Davydenko, A.A.Kokoshin, N.V.Laskina, V.I.Zvereva, N.V.Kuxarev, P.A.Mixnenko, B.A.Rayzberg, M.B.Alyushin, L.M.Plaxova, ta'lim tashkilotlarida boshqaruv jarayonlarining ilmiy asoslarini tadqiq etgan.

Xorijiy davlat olimlaridan P.Drucker, M.Fullan, H.Mintzberg, T.Sergiovanni, Stephen Covey, A.Hargreaves, B.Kellerman, Ph.Hallinger, T.Bush, R.Marzano, V.Robinsonning tadqiqotlarida boshqaruvning amaliy va nazariy masalalari o'z aksini topgan.

Tahlil qilingan tadqiqot yo‘nalishlari va ularning natijalari shuni ko‘rsatadiki, umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni samarali boshqarish va tashkil etishga qaratilgan texnologiyalarni amaliyotga joriy etishning ilg‘or mexanizmlarini yaratish va takomillashtirish bugungi kunda muhim ilmiy va innovatsion vazifalardan biri sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti 2024-yil 25-yanvardagi navbatdan tashqari 7-sonli yig‘ilishida tasdiqlangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Innovatsion texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga tatbiq etish zaruriyati” ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini ta‘minlash texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini ta‘minlash texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini modernizatsiyalash vositasida ta‘lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini baholash indikatorlarini takomillashtirish;

umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini ta‘minlash strategiyalarini aniqlashtirish;

umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini ta‘minlash texnologiyalarini unifikatsiya qilish orqali ta‘lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini ta‘minlash mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish strategiyalarini takomillashtirish;

umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini ta‘minlash strategiyalarini aniqlashtirish, qayta ishlash va muvofiqlashtirish yordamida samaradorlikni ta‘minlash jarayonlari modelini takomillashtirish;

Tadqiqotning obyekti sifatida umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarida faoliyat samaradorligini ta‘minlashga qaratilgan texnologiyalarni amaliyotga joriy etish jarayoni belgilab olindi va ushbu tadqiqot doirasida Farg‘ona, Andijon, Namangan, Surxondaryo hamda Qashqadaryo viloyatlarining pedagogik mahorat markazlaridan jami 510 nafar tinglovchilar ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini ta‘minlash texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy-taqqoslash, pedagogik kuzatuv, ijtimoiy-pedagogik so‘rov, suhbatlar, pedagogik eksperiment, test sinovlari, ekspert baholash, matematik-statistik tahlil va tahlil natijalarini umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarida boshqaruv jarayonlari samaradorligini ta‘minlash bosqichlarini strategik rejalashtirish vositasida takomillashtirish orqali ta‘lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini ta‘minlash va baholash indikatorlari aniqlashtirildi;

strategik yondashuv va strategik boshqaruv texnologiyalariga ustuvorlik berish hamda strategik rejalarni muvofiqlashtirish asosida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini ta'minlash jarayonlari integratsiyasini amalga oshiruvchi (funktional, diversifikatsiyaviy, mujassamlashtirilgan va maxsus) strategiyalar takomillashtirildi;

hamkorlikda boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan jamoaviy ijodiy faoliyat texnologiyasi (JIFT), axborotlarni qayta ishlashga asoslangan boshqaruv (MBIP) texnologiyasi hamda o'quv jarayonini boshqarish tizimi (Learning Management System – LMS) kabi zamonaviy boshqaruv texnologiyalarining o'zaro integratsiyasini ta'minlash vositasida boshqaruv jarayoniga tatbiq etish orqali ularning identivligini ta'minlash mexanizmi takomillashtirildi;

ijtimoiy talab, zamonaviy boshqaruv ehtiyojlari va boshqaruv faoliyati samaradorligini aniqlash indikatorlariga muvofiq tizimli va barqaror rivojlantirishni ta'minlovchi yondashuv va mexanizmlarni integratsiyalash asosida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini ta'minlash jarayonlari modeli va uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmi modernizatsiya qilindi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari boshqaruv faoliyati samaradorligini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-metodik va texnologik shart-sharoitlarga muvofiq ta'lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari aniqlashtirilgan;

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatida qo'llanilayotgan strategik rejalarni muvofiqlashtirish asosida takomillashtirilgan ishchi strategiyalarni amaliyotga tatbiq etish texnologiyalari hamda mexanizmlarining nazariy-didaktik asoslari takomillashtirilgan;

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan strategik rejalarni muvofiqlashtirish asosida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini ta'minlash jarayonlari integratsiyasini amalga oshiruvchi strategiyalar takomillashtirishga erishilgan;

hamkorlikda boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan zamonaviy boshqaruv texnologiyalarining o'zaro integratsiyasini ta'minlash va boshqaruv jarayoniga samarali tatbiq etish orqali ularning identivligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish yo'nalishlari va usullarini aniqlashtirishga erishilgan;

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari boshqaruv faoliyati samaradorligini ta'minlashga qaratilgan mexanizmlar hamda pedagogik jarayon sub'ektlari boshqaruv faoliyati samaradorligi strategiyalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan faoliyatli, tizimli ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Mazkur tadqiqot ilmiy-metodologik prinsiplar asosida tashkil etilgan bo'lib, unda qo'llanilgan konseptual yondashuvlar, tahliliy-uslubiy vositalar va nazariy manbalar ishonchli rasmiy adabiyotlardan olinganligi bilan ajralib turadi. Pedagogik eksperimental ishlar natijalari statistik va matematik usullar yordamida asoslab berilgan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari o'zaro uyg'un va mos bo'lib, yakuniy xulosa, taklif va amaliy tavsiyalar ta'lim

amaliyotiga tatbiq qilingan hamda olingan natijalar tegishli mutasaddi tashkilotlar tomonidan tan olingan va huquqiy jihatdan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi: dissertatsiya doirasida asoslangan ilmiy ma'lumotlar, taklif qilingan metod va texnologiyalar, yaratilgan mexanizmlar hamda tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanma, model va tavsiyalar umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari rahbarlari va o'qituvchilarining malakasini oshirish tizimlarini yanada rivojlantirish va mazmunini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ular umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari rahbarlari va pedagog xodimlariga ta'lim boshqaruv tizimini takomillashtirishda, shuningdek, pedagogik mahorat markazlarida tashkil etiladigan ta'lim menejmenti, pedagogika va boshqaruv yo'nalishidagi o'quv-treninglarda samarali tarzda qo'llanishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur tavsiyalar va yondashuvlar O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi tizimining hududiy bo'g'inlari faoliyatida ham qo'llashga mos bo'lib, boshqaruv amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini ta'minlash texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar:

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida boshqaruv jarayonlari samaradorligini ta'minlash bosqichlarini strategik rejalashtirish vositasida takomillashtirish orqali ta'lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini ta'minlash va baholash indikatorlarini aniqlashtirishga oid taklif va tavsiyalardan Namangan davlat universitetida 2015–2017-yillar davomida bajarilgan PZ-2014-0915173958 "Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich sinf o'quvchilarida dastlabki matematik bilimlarni shakllantirishga mo'ljallangan multimediali intellektual o'yinlar" mavzusidagi amaliy loyiha belgilangan vazifalarini bajarishda foydalanilgan va yuqoridagi tavsiyalar ushbu loyiha doirasida nashr etilgan ishlarda o'z ifodasini topgan. Natijada umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini ta'minlash texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirishga doir seminar-trening mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim va loyiha dasturlari majmuini ishlab chiqishga xizmat qilgan;

strategik yondashuv va strategik boshqaruv texnologiyalariga ustuvorlik berish hamda strategik rejalarni muvofiqlashtirish asosida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini ta'minlash jarayonlari integratsiyasini amalga oshiruvchi (funktSIONal, diversifikatsiyaviy, mujassamlashtirilgan va maxsus) strategiyalar takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-2017093020 raqamli "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va prognozlashtirishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish va kompleks dasturini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan. Natijada umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari boshqaruv faoliyati samaradorligini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayonni loyihalash texnologiyalari, boshqaruv uslubi, innovatsion faoliyatning barqarorligi hamda pedagogik jamoaning integratsiyalashgan faoliyati kabi asosiy omillarni tizimli

tahlil qilish orqali ta'lim boshqaruvining samaradorligini baholashda o'quv mashg'ulotlari mazmuniga singdirish asosida takomillashtirishga xizmat qilgan;

hamkorlikda boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan jamoaviy ijodiy faoliyat texnologiyasi (JIFT), axborotlarni qayta ishlashga asoslangan boshqaruv (MBIP) texnologiyasi hamda o'quv jarayonini boshqarish tizimi (Learning Management System – LMS) kabi zamonaviy boshqaruv texnologiyalarining o'zaro integratsiyasini ta'minlash vositasida boshqaruv jarayoniga tatbiq etish orqali ularning identivligini ta'minlash mexanizmi takomillashtirishga oid taklif va metodik tavsiyalari "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida samarali boshqaruv va innovatsiyalar" nomli uslubiy qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Xalq ta'limi vazirligining 2018 yil 20 apreldagi 01-02/2-2-123-sonli ma'lumotnomasi). Natijada tinglovchilarda umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyati boshqaruvi samaradorligi oshishiga erishilgan;

ijtimoiy talab, zamonaviy boshqaruv ehtiyojlari va boshqaruv faoliyati samaradorligini aniqlash indikatorlariga muvofiq tizimli va barqaror rivojlantirishni ta'minlovchi yondashuv va mexanizmlarni integratsiyalash asosida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini ta'minlash jarayonlari modeli va uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmi modernizatsiyasiga doir taklif va tavsiyalar O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasi "O'zbekiston" teleradiokanali 2023–2024-yillarda efirga uzatilgan "Ta'lim va taraqqiyot", "Bolalar va biz" dasturining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2025 yil 18 fevraldagi 05-09-196-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur eshittirishlar umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatida boshqaruvning yangi, zamonaviy texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlari samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola e'lon qilingan bo'lib, ulardan 5 tasi respublikada va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 147 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, ilmiy muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari bayon qilingan, obykti va predmeti aniqlangan, fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning

amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, tadqiqot ishi tuzilishi va hajmiga doir ma'lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini ta'minlash va uning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyati samaradorligi va uning nazariy asoslariga ta'sir etuvchi omillar xususida so'z yuritilgan. Shuningdek, Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari da strategik boshqaruv asosida faoliyat samaradorligini oshirish zaruriyat sifatida asoslangan. Boshqaruvning o'ziga xos jihatlari va samaradorlik darajasini mavjud holati tahlil qilingan.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari boshqaruv samaradorligiga erishish uchun tashkilot rahbarlari tashkilotning asosiy maqsadlari yo'nalishida strategik rejalashtirish sirlarini, boshqaruv usullari, metodlari xamda tamoyillari, innovatsion texnologiyalarni bilishi va bular asosida jamoaning integrativ faoliyatiga murakkab pedagogik tizim sifatida yondashuvlarga yo'naltirilgan innovatsion faoliyatni tashkil etishning zarurligini inobatga olgan holda maktab direktori boshqaruv faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar sifatida quyidagilarni bayon qilish mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar (1-rasm) quyidagicha aniqlanadi: maktab boshqaruvini ichki va tashqi o'zgarishlarga moslashtirish, rahbarlik usullarini korporativ ravishda foydalanish, ta'lim menejmenti tamoyillarini chuqur o'rganish va amalga oshirish, shuningdek, boshqaruvni maktab faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirish asosida belgilash.



1- rasm. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari boshqaruv faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar


Bizning fikrimizcha, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari tizimi boshqaruvi ham mazmun-mohiyatiga ko'ra boshqa jarayonlar boshqaruvi kabi menejmentning barcha qonuniyatlariga amal qilishi zarur.

Strategik boshqaruv nazariyalari umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari tizimi barcha komponentlari integratsiyasini ta'minlash asosida samaradorlikni oshirishga

qaratilgan tadqiqotlar, boshqaruvning asosiy tushunchalarini metodologik jihatdan shakllantiradi. Bu tadqiqotlar umumiy o'rta ta'lim tizimini o'rganish, tahlil qilish va takomillashtirishda strategik rejalashtirish asosida boshqaruvning yangi texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etishda muhim o'rin tutadi.

Umumiy o'rta ta'lim jarayonlari integratsiyasini ta'minlashda uning samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni, ziddiyatlarni va ularni yechish yo'llarini oldindan aniqlash hamda strategik rejalashtirish asosida ta'lim jarayonlari samaradorligini oshirishda strategik yondashuv texnologiyalari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek umumiy o'rta ta'lim tizimini boshqarishda mazkur tizim sub'ektlari mustaqil qarorlar qabul qilish, strategik maqsadni shakllantirish, taktika va strategiyani mustaqil belgilash, individual va hududiy rivojlanishning istiqbol dasturlarini mustaqil ishlab chiqishi zarur.

Samarali strategiyaaning asosi ta'lim xizmatlari sohasida mustahkam pozitsiyani egallash va kutilmagan sharoitlarda, kuchli raqobat va ichki muammolarga qaramay muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkonini beradigan umumiy o'rta ta'lim tashkilotini tushunishdan iborat.




2- rasm. Strategik boshqaruvning asosiy funksional vazifalari.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari samaradorligini oshirishda (2-rasm) keltirilib strategik boshqaruvning asosiy vazifalari zarur bo'lganda qayta aniqlash, ko'rish, ta'riflash, ishlash va qaytar aloqani yo'lga qo'yish bular orqali boshqaruv faoliyati natijalarni baholash va strategik reja yoki uni amalga oshirishdagi usullarni o'zgartirish xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotida strategik boshqaruv asosiy tushunchalarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini o'rganish jarayonida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari tizimi har bir komponentining strategik maqsadi va imkoniyatlari inobatga olingan, shuningdek tizimni tashkil etuvchi har bir bo'g'in va barcha sub'ektlarning funksional vazifalarini hamkorlikda amalga oshirilishini nazarda tutuvchi funksional, diversifikatsiyalashgan, mujassamlashtirilgan va maxsus strategiyalarni ham mazmun-mohiyatan, ham yo'nalishiga ko'ra, ham umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari tizimi faoliyatida belgilangan strategik maqsadlarga ko'ra takomillashtirilishi zaruriyatining mavjudligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning ikkinchi “**Umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari faoliyati samaradorligini taʼminlash texnologiyalari va mexanizmlari**” nomli ikkinchi bobida umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari faoliyati samaradorligini amaliyotga tatbiq etishga tayyorlash texnologiyalari, natijadorligini taʼminlash mexanizmlari va boshqaruv jarayonlariga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish modeli asosida tashkilotni boshqarish jarayonlarining ilmiy-pedagogik asoslarini yaxlit tizimini ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan “Jamoaviy ijodiy faoliyat texnologiyasi” (3-rasm) rahbarlar, oʻqituvchilar va oʻquvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish boʻlib, unda jamoaning barcha aʼzolari boshqaruv faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish, maqsadlarni amalga oshirish, tahlil qilish va mulohaza yuritishda ishtirok etadilar.



3-rasm. Umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarida jamoaviy ijodiy faoliyat texnologiyasi asosida boshqaruv samaradorligini oshirish.

Umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarida jamoaviy ijodiy faoliyat texnologiyasi umumpedagogik, zamonaviy, innovatsion taʼlim texnologiyalarining oʻzaro integratsiyasi, mantiqiy ketma-ketligini taʼminlash orqali muvofiqlashtirildi.


Ishlab chiqilgan texnologiyaning maqsadi umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari rahbarlari boshqaruv faoliyati samaradorligi hamda natijadorligini taʼminlashni kafolatlaydi.

Umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarida Learning Management System (LMS) texnologiyasining joriy etilishi taʼlim jarayonini samarali boshqarish va uning sifatini oshirishda muhim rol oʻynaydi. Umumiy oʻrta taʼlim tashkiloti rahbarlari

Learning Management System texnologiyasidan ta'lim jarayonini samarali boshqarish, resurslarni taqsimlash, o'qituvchilarning faoliyatini nazorat qilish va o'quvchilarni monitoring qilishda foydalanadilar.

Learning Management System texnologiyasi rahbar boshqaruvida ta'lim tashkilotlarini samarali boshqarish, o'qituvchilarni baholash, o'quvchilarning o'qish jarayonini monitoring qilish va umumiy ta'lim sifatini oshirishda juda muhim vosita hisoblanadi. Bu texnologiya rahbarlarga ta'lim tashkilotining barcha faoliyatini bir joyda kuzatib borish va samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shuningdek, LMS texnologiyalari ta'limni modernizatsiya qilish, innovatsion pedagogik metodlarni qo'llash va resurslarni samarali boshqarishda yordam beradi.

Data-Driven Education (axborotlarni qayta ishlashga asoslangan boshqaruv) texnologiyasi umumiy o'rta ta'lim tashkiloti boshqaruv jarayonida to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish va shu asosda qarorlar qabul qilish xamda amaliyotga tatbiq etishga asoslangan. Bu yondashuv ta'lim jarayonlari samaradorligini oshirish, o'quvchilarga individual yondashuvni ta'minlash va ta'lim tizimini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu (4-rasm) texnologiyaning asosiy xususiyatlari va ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rnini batafsil ko'rib chiqaylik.



4-rasm. Data-Driven Education texnologiyasi bosqichlari

Data-driven ta'lim texnologiyasi ta'limni boshqarishda ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va ularga asoslanib qarorlar qabul qilish orqali ta'lim sifatini yaxshilash, har bir o'quvchiga moslashtirilgan yondashuvni ta'minlash va ta'lim tizimini samarali qilib rivojlantirish imkonini beradi.

Ushbu texnologiyaning joriy etishda ta'lim tashkilotlarining o'ziga xos sharoitlari va resurslarini hisobga olish muhim. Data-Driven Education ta'lim jarayonini shaffof, samarali va o'quvchilar uchun qulay sharoitni yaratishga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari tashkilotlarining samarali faoliyatini tizimli ravishda optimallashtirish asosida zamonaviy texnologiyalar ma'muriy jarayonlarni avtomatlashtirish, o'quvchilar va pedagoglar o'rtasida hamkorlikni ta'minlash, ta'lim natijalari va boshqaruv faoliyatini baholashga qaratilgan monitoring va tahlil vositalarini joriy etish imkonini beradi. Bu, ta'lim tashkilotlari rahbarlari, ularning o'rinbosarlari va o'quv jarayonini amalga oshirish va muvofiqlashtirish uchun javobgar bo'lgan barcha xodimlar uchun samaradorlikni baholashga yordam beradi.


Algoritmnii joriy etish umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa tizimli yondashuv va innovatsion

strategiyalar asosida ta'lim jarayonining nazariy va amaliy usullarini uyg'unlashtirish imkonini beradi, shuningdek, innovatsion yondashuvlar bilan mavjud ta'lim muhitining o'zaro hamkorligini ta'minlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining samarali faoliyatini ta'minlash algoritmi – bu ma'lum bir natijaga erishish uchun yo'naltirilgan harakatlar ketma-ketligining tartibga solingan va yakuniy ketma-ketligidir. Ushbu jarayon har bir bosqichda umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sub'ektlarining samarali faoliyatiga qaratilgan strukturaviy ketma-ketlikdan iborat.

Algoritmning maqsadi – umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining samaradorligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv usullari va pedagogik yondashuvlarni tizimli va izchil ravishda tatbiq etishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining samaradorligini oshirishning istiqbollarini belgilovchi mexanizmni ko'rib chiqamiz, bu esa tizim sifatida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari boshqaruv samaradorligini oshirishni ta'minlaydi(5-rasm).



5-rasm. Ta'lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish mexanizmini amalga oshirish algoritmi.

Ushbu rasmda ta'lim jarayonining sifati, o'qituvchilarning kasbiy mahorat darajasi va samarali faoliyatni ta'minlashga yo'naltirilgan strategik rejalashtirish jarayonlari aks ettirilgan. Shuningdek, innovatsion yondashuv va texnologiyalarni joriy etish, ta'lim traektoriyalarini shakllantirish, o'quv jarayoni ishtirokchilarining liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb etish kabi omillar yoritilgan. Bundan tashqari, ta'lim tashkilotlari faoliyatining

samaradorligini oshirish uchun natijalarni tahlil qilish, monitoring olib borish va shu asosda zarur tuzatishlarni kiritish mexanizmlari ko'rsatilgan.


Ta'lim tashkilotining joriy holatini diagnostika qilish – bu ta'lim muhiti (hozirgi jarayon), muammolar (me'yorlardan chetlanish va ularning sabablari) va uning rivojlanishi uchun zaxiralarni aniqlash (ushbu tashkilot sharoitida ularni hal qilish yo'llarini izlash) bo'yicha ob'ektiv ma'lumotlarni qisqa muddat ichida aniqlash va tahlil qilish jarayoni. Tashkilotning joriy holatini diagnostika qilishning maqsadi – boshqaruv qarorlari va rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish uchun ma'lumot bazasini shakllantirishdir.

Ta'lim faoliyatining barcha darajalarida liderlik sifatlarini rivojlantirishning ahamiyati uning ta'lim va tarbiya sifatiga ta'sirini belgilab berdi. Ta'lim sohasida liderlik sifatlarini rivojlantirish ta'lim jarayonining sifatini oshirish, o'quvchilarni jamiyat va mehnat bozoridagi o'zgarishlarga muvaffaqiyatli moslashishga tayyorlash, shuningdek, barcha ta'lim jarayoni ishtirokchilarida mas'uliyat va tashabbuskorlikni shakllantirish uchun standart shartdir.

Tizimli yondashuv ta'lim jarayonini uning barcha ishtirokchilari - o'quvchilar, pedagoglar, ma'muriyat va ota-onalar - o'zaro ta'siri sifatida ko'rishni anglatadi, bu esa har bir komponentning umumiy natijaga ta'sirini hisobga olish imkonini beradi. Monitoringning davriyligi uning muntazam o'tkazilishini va yuzaga kelgan og'ishlarga tezkor javob berish imkoniyatini anglatadi.

Monitoring va ta'lim jarayonining natijalarini tahlil qilish barcha ta'lim muhitidagi ishtirokchilarning shaxsiy va professional rivojlanishiga sharoit yaratadi. Bu ta'lim tashkilotlariga xizmatlar sifatini oshirish, individual ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish, innovatsion metodlarni joriy etish va ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi.

Monitoring va ta'lim jarayonining natijalarini tahlil qilish asosida strategiyani to'g'rilash va moslashtirish mexanizmlari ta'lim tashkilotlariga o'z faoliyatini samarali tashkil etish, o'zgarishlarga vaqtida moslashish, asosli qarorlar qabul qilish va samaradorlikni oshirish imkoniyatini beradi.



6-rasm. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari boshqaruv faoliyati samaradorligi strategiyalarini adaptatsiyalashtirish va korektsiyalash mexanizmi.

Ushbu umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari boshqaruv faoliyati samaradorligi strategiyalarini adaptatsiyalashtirish va korektsiyalash mexanizmda quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Ushbu mexanizmlar, birgalikda faoliyat yuritib, ta'lim jarayonining samaradorligini yaxshilash, ta'lim sifatini oshirish, barcha ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ishtirokini va motivatsiyasini oshirish uchun sharoit yaratadi.

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining faoliyati samaradorligini oshirish va ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun kompleks va strategik yondashuvlarni joriy etish zarur. Barcha ishtirokchilar faoliyatini optimallashtirmasdan turib, ta'lim tizimini yaxshilashga erishish mumkin emas.


Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari boshqaruvida strategik rejalashtirish va takomillashtirish jarayonlarining eng asosiy bosqichlaridan biri strategiya turlari va ularning o'ziga xos tomonlarini o'rganish asosida ularning har biri qanday maqsadlarga qaratilgani va ulardan qaysi yo'nalishlarda foydalanish mumkinligini aniqlash bo'lib, bu vazifalarni amalga oshirish strategiyalarni tanlash va ularning samaradorligini tahlil qilish metodlarini o'rganishni taqozo etadi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari boshqaruv va hamkorlikdagi boshqaruv jarayonlari samaradorligi maktab rahbarlarining strategik, strukturaviy, tizimli, regional, reorganizatsion, demonstratsion, ijodiy, vaziyatli, innovatsion va korporativ yondashuvlardan foydalanish qobiliyatiga bog'liqdir. Shuningdek, modellashtirish, kuzatish (axborot to'plash), tajriba-sinov (eksperiment), sotsiologik kuzatuv (so'rovnoma, test, suhbat) usullaridan unumli foydalanish boshqaruv jarayonlarini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib umumiy o'rta ta'lim tashkiloti faoliyati boshqaruv jarayonlariga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish modelini (7-rasm) ishlab chiqdik.

Modelning maqsadi zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish asosida umumiy o'rta ta'lim tashkiloti boshqarish jarayonlarining ilmiy-pedagogik asoslarini yaxlit tizimini ishlab chiqishdan iborat etib belgilandi.

